

SAGDIYEV Habibulloh

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: eagle75@mail.ru*

BOTIROV Bahodir

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
magistranti
hhuruufulhija@gmail.com*

“BAY’AT” TUSHUNCHASINING SIYOSIY-HUQUQIY VA TARIXIY TAHLILI

ПОЛИТИКО-ПРАВОВОЙ И ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ «БАЙАТ»

POLITICAL-LEGAL AND HISTORICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “BAY’AH”

***Annotatsiya.** Maqolada “bay’at” institutining islom huquqi va zamonaviy siyosiy tizimlardagi o’rni qiyosiy tahlil qilinadi. Unda atamaning etimologik ildizlari, tarixiy, tasavvufiy-ma’naviy qirralari hamda davlat boshqaruvidagi ijtimoiy shartnoma sifatidagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, tarixiy bay’at an’analarning bugungi demokratik saylov jarayonlari va hokimiyat legitimligi tushunchalari bilan o’zaro mutanosib jihatlari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: Bay’at, sadoqat, shartnoma, legitimlik, siyosiy-huquqiy institut, islom davlatchiligi, saylov.

***Аннотация.** В статье проводится сравнительный анализ института «байат» в исламском праве и современных политических системах. Раскрываются этимологические корни данного термина, его исторические и духовно-суфийские аспекты, а также значение байата как общественного договора в государственном управлении. Кроме того, научно обоснована взаимосвязь и соразмерность исторических традиций байата с современными демократическими избирательными процессами и концепциями легитимности власти.*

Ключевые слова: Байат, преданность, договор, легитимность, политико-правовой институт, исламская государственность, выборы.

Annotation. The article provides a comparative analysis of the institution of “bay’ah” within islamic law and modern political systems. It explores the etymological roots of the term, its historical and mystical-spiritual dimensions, and its significance as a social contract in state administration. Furthermore, the study provides a scholarly substantiation of the mutual correlation and proportionality between the historical traditions of bay’ah and contemporary democratic electoral processes, as well as concepts of political legitimacy.

Keywords: Bay’ah, allegiance, contract, legitimacy, political-legal institution, islamic statehood, election.

KIRISH

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida davlat boshqaruvining huquqiy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash, rahbar va fuqaro o’rtasidagi munosabatlarni qonuniy tartibga solish masalasi hamisha markaziy o’rinni egallab kelgan. Bugungi kunda global siyosiy transformatsiyalar va huquqiy islohotlar sharoitida davlat hokimiyatining qonuniyligi nafaqat qonun hujjatlariga, balki jamiyatning tarixiy-ma’naviy ildizlariga ham tayanadi. Islom davlatchiligi va huquqshunosligi tarixida ana shunday fundamental institutlardan biri sifatida “bay’at” tushunchasi namoyon bo’ladi. Bay’at – shunchaki an’anaviy tizim emas, balki boshqaruvning siyosiy-huquqiy asosi, rahbar va xalq o’rtasidagi o’zaro majburiyatlarni belgilovchi o’ziga xos ijtimoiy shartnomadir.

Zamonaviy huquqiy davlat qurish yo’lidan borayotgan jamiyatlar, xususan, O’zbekistonda yoshlarning siyosiy ongini yuksaltirish va ularni yot g’oyalardan himoyalashda tarixiy institutlarning asl mohiyatini ilmiy asosda ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. So’nggi yillarda mamlakatda ilm-ma’rifatni rivojlantirish va islom ilmiy merosini chuqur o’rganish borasida olib borilayotgan keng ko’lamli siyosat doirasida aynan bay’at tushunchasini ham qayta tahlil qilish ehtiyoji paydo bo’ldi. Zero, radikal oqimlar tomonidan ushbu tushunchaning noto’g’ri talqin qilinishi va uni faqatgina tor doiradagi guruh manfaatlarini yo’lida ishlatilishi jamiyat barqarorligiga xavf tug’diruvchi omillardan biridir. Shuning uchun ham bay’atning siyosiy, huquqiy va tarixiy qirralarini klassik

manbalar hamda zamonaviy huquqiy prinsiplar asosida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy vazifadir.

Bay'at instituti o'zining etimologik ildizlaridan boshlab, jamiyat a'zolarining ixtiyoriy roziligi va sadoqatini ifodalaydi. Islom huquqi manbalarida bay'at tushunchasi "bay" (sotish) so'zi bilan o'zaro bog'liq holda tushuntirilib, u huquqiy jihatdan biror narsani topshirish evaziga muayyan kafolatlarga ega bo'lishni anglatadi. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy siyosatshunoslikdagi "ijtimoiy shartnoma" nazariyasining islomiy analogi sifatida qaralishi mumkin. Maqolada ushbu institutning nafaqat tarixiy jarayonlari, balki uning zamonaviy davlatchilikdagi legitimlik va saylov tizimlari bilan o'zaro mutanosib jihatlari tahlil qilinadi.

Maqoladan ko'zlangan maqsad – bay'at tushunchasining nafaqat dinga bog'liq jihatini, balki uning davlat va jamiyat boshqaruvidagi barqarorlikni ta'minlovchi siyosiy-huquqiy tomonlarini ham yoritishdir. Shuningdek, bay'atning islom huquqshunosligi nuqtayi nazaridan terminologik tahlili hamda Ibn Xaldun, Ibn Manzur kabi mutafakkirlarning qarashlari asosida uning huquqiy maqomi aniqlashtirildi.

Tasavvufiy adabiyotlarda, xususan, Najmiddin Kubroning "Ta'viloti Najmiya" asarida bay'atning ma'naviy-axloqiy jihatlari qanday talqin etilganini ham tahlil obyekti sifatida baholash mumkin. Xulosa qilib aytganda, bay'at institutini tizimli o'rganish bugungi kunda islom davlatchiligi asoslarini to'g'ri tushunish, radikalizmga qarshi ilmiy-ma'rifiy raddiyalar tayyorlash va milliy davlatchilikning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

"Mavsu'atu-l-fiqhiyya" qomusida bay'at so'zi lug'atda "itoat etishga kelishish (bay'at qilish)" hamda "oldi-sotdi bitimidagi kelishuv – savdolashuv" ma'nolarini anglatadi. Arab tilida "U bilan savdolashdim" – [بَايَعْتُهُ] deyiladi, bu esa "bay" [بَيْعٌ] – "sotish" so'zidan olingan" [6:274] – deya bayon qilingan.

Ibn Manzur qalamiga mansub "Lisonu-l-arab" asariga ko'ra "bay'at" atamasi lug'aviy jihatdan savdoni vojib qilish, ya'ni uni yakunlash ustidagi kelishuvni anglatadi. Shu bilan birga, u o'zaro

ahdlashish va itoat etish ma'nolarini ham o'z ichiga oladi. Demak, bay'at tushunchasi nafaqat iqtisodiy mazmundagi savdolashuvni, balki ma'naviy-huquqiy jihatdan bo'ysunish va sadoqat bildirish mazmunini ham ifodalaydi. Kishilar biror masala yuzasidan "o'zaro bay'atlashdilar" deb ta'riflanganda, bu ularning savdolashgani, o'zaro qo'l berib kelishuvga erishganini bildiradi [7:402].

Arab tilida biror shaxs bilan muayyan masala yuzasidan bay'atlashish [المبايعة] – u bilan ahdlashish, ya'ni o'zaro majburiyat va kelishuvga kirishish deganidir. "U bilan bay'atlashdim" iborasi o'zida "bay" [بَيْعٌ] – sotish hamda "bay'at" [بَيْعَةٌ] – ahd ma'nolarini mujassam etadi. Shuningdek, "tabayu" [تَبَايَعُ] atamasi ham o'zaro savdolashish va ahdlashish mazmunini ifodalaydi [7:402]. Demak, mazkur terminlar semantik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib, savdo va ahd o'rtasidagi ma'naviy-huquqiy o'xshashlikni ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan, yuqoridagi ikki ma'no o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bay'at jarayonida shaxs jamiyat rivoji, undagi tartib va adolat prinsiplarining ustuvor bo'lishi evaziga o'zining irodasi va sadoqatini ma'naviy mulk sifatida rahbar ixtiyoriga topshiradi. Qur'onning Fath surasidagi "(Ey Muhammad!) **Haqiqatan, Sizga bay'at qiladiganlar, albatta, Allohga bay'at qilgan bo'lurlar**" [1:512] mazmunli 10-oyatida bay'atning ilohiy darajaga ko'tarilishi, hadisi shariflarda Muhammad (SAV)ga islom hamda vatan himoyasiga qaratilgan jihat borasida bay'at qilinishi [2:788] ushbu institutning davlat barqarorligi uchun nafaqat ramziy, balki huquqiy asos ekanini ko'rsatadi.

Bay'at instituti islom tarixida nafaqat ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, balki inson ma'naviyatini isloh qilishning muhim vositasi bo'lib ham xizmat qilgan. Tasavvufiy adabiyotlarda bay'at – "tariqat bay'ati" yoki "tavba bay'ati" kabi nomlar bilan ham yoritilgan. So'fiylar nazdida bay'at – bu shogirdning o'z nafsini isloh qilish va Allohga bo'lgan sadoqatini mustahkamlash yo'lida ma'naviy ustozga – murshidga bergan ahddir.

Zamonaviy islom olimi hamda tasavvuf namoyondalaridan Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy bay'atning islom tarixidagi o'rni va amaliy ahamiyatini ikkita asosiy qismga ajratib ko'rsatadi. Birinchisi, bu – islom uchun bay'at qabul qilish

[9:26]. Ushbu turdagi bay'at shaxsning islom dinini qabul qilishi, kufr va shirkdan voz kechishi hamda tavhid yo'liga kirishini tasdiqlovchi rasmiy va ma'naviy jarayon hisoblanadi. Muhammad (SAV)ning Madina ahlidan haj mavsumida olgan bay'atini bunga misol qilib ko'rsatiladi.

Ikkinchisi, tariqat bay'ati hisoblanib, u ma'naviy islohot va tavba bay'ati nomi bilan ham atalgan [9:28]. Olimning fikricha bu turdagi bay'at imon keltirgan shaxslarning o'z nafslarini tarbiya qilish, gunohlardan tiyilish va ma'naviy kamolotga erishish maqsadida qiladigan ahdlaridir. Hadislarda rivoyat qilinuvchi Payg'ambar (SAV) ning sahobalardan ayrim gunohlarni tark etish bo'yicha bay'at olganligi shaxsiy manfaat uchun emas, balki butun ummatga ma'naviy tarbiya metodologiyasini o'rgatish maqsadida bo'lganligi ta'kidlanadi.

Ushbu ma'naviy ahdlashuvning tub mohiyati Najmiddin Kubroga nisbat beriluvchi "Ta'viloti Najmiya" asarida yanada chuqurlashtiriladi. Asarda "(Ey Muhammad!) **Haqiqatan, Sizga bay'at qiladiganlar, albatta, Allohga bay'at qilgan bo'lurlar**" [1:512] oyati haqida quyidagicha yoziladi: "(Ushbu oyat) Payg'ambar (SAV)ning vujudlari – borliqlari Allohda fano bo'lishining kamoliga va U zotning Alloh bilan boqiy bo'lishlariga ishora qiladi" [5:362].

Ushbu jumlada tasavvufning ikki muhim tushunchasi – "fano" va "baqo" orqali bay'at masalasi yoritilmoqda. "Fano fillah" deganda Payg'ambar (SAV)ning o'z xohish-irodalari va borliqlarini butunlay Allohning irodasida eritganliklari nazarda tutilgan. Ya'ni, u Zot o'zlaridan kelib chiqib emas, balki faqat Allohning izni bilan ish tutadilar. "Baqo billah" esa – "Alloh bilan boqiy bo'lish" ma'nosida bo'lib, fano bosqichidan keyingi daraja hisoblanadi. Bunda inson o'z "men"ini yo'qotib, har bir ishda Haq taoloning qudrati va sifati bilan harakat qiladi.

Bu ma'no Fath surasidagi "**Allohning qo'li ularning qo'llari ustidadir**" mazmunidagi 10-oyat bilan ham mos keladi. Ya'ni, bu bay'at bitimi Alloh bilan tuzilgandir. "**Bas, kimki** (o'z qasamyodini) **buzsa, bas, u faqat o'z zarariga buzur**" va ushbu ulug' baxtdan mahrum bo'lish bilan o'ziga zarar qiladi. "**Kimki Alloh bilan ahdlashgan narsasiga vafo qilsa, u holda**

(Alloh) **unga ulkan mukofot ato etur**" [1:512] (Fath surasi, 10-oyat). Mana shunday qilib, bay'at va ahdlashuv Alloh bilan bo'lgani ochiq bayon qilindi. Toki Alloh bay'at qiluvchi kishining bay'at qilingan kishiga ergashishida sobitqadamlikni rizq qilib bersin" [5:362].

MUHOKAMA

Demak, "Ta'viloti Najmiya" asarida aytilishicha, ushbu bay'at bitimi aslida Alloh bilan tuzilgan bitimdir. Chunki oyatda Allohning qo'li ularning qo'llari ustida ekani aytiladi. Shunday ekan, kimki ushbu axloqiy va ma'naviy ahd hisoblangan bay'atni buzsa, u faqat o'zining zarariga ishlagan bo'ladi va baxtdan mahrum bo'ladi. Kimki Allohga bergan ahdiga, ya'ni Rasululloh orqali qilingan bay'atga vafodor bo'lsa, Alloh unga ulug' ajr berishi ta'kidlangan. Shuningdek, tafsirda bay'atda sobit turish uchun Alloh tomonidan rizqlantirilish haqida ham so'z bormoqda.

Yuqorida aytilgan qomusiy adabiyotlarda bayon qilinishicha "Bay'at – bu ahdlashuv va kelishuvdan iborat ish hisoblanib, unda ikki tarafning har biri o'zidagi bor narsani sherigiga sotayotgandek va unga o'zining bor ixlosini, itoatini va ichki sirlarini topshirayotgandek bo'ladi" [6:274].

O'rta asrlar siyosiy tafakkurining yirik vakili Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida bay'atga huquqiy ta'rif berib: "Bay'at – itoat qilish, bo'ysunishga ahdlashishdir. Go'yo bay'at beruvchi o'z amiriga o'zining va musulmonlarning ishlarini unga topshirishga, bu borada u bilan nizolashmaslikka hamda o'ziga yoqqan va yoqmagan – yengil va og'ir holatlarda ham buyurilgan ishlarda unga itoat qilishga ahd beradi" [6:274] – deydi. Ushbu ta'rifga ko'ra, bay'at beruvchi kishi yoki fuqaro bir qancha majburiyatlarni o'z zimmasiga olayotgan bo'ladi. Masalan, hokimiyat legitimligini tan olish – rahbar bilan boshqaruv masalasida nizolashmaslik, siyosiy jihatdan rahbarga itoat qilib, yengil va og'ir sharoitlarda ham jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi buyruqlarni bajarish kabilar.

Shuningdek, ilgari kishilar amirga bay'at qilib, ahd-paymon tuzganlarida, ushbu ahdni tasdiqlash uchun qo'llarini uning qo'liga qo'yg'anliklari, bu

harakat sotuvchi va sotib oluvchining kelishuviga o'xshab ketgani uchun ham bay'atda qo'l ustiga qo'l qo'yish holati urfga aylanib ketgani ma'lum bo'ladi. Bu holat zamonaviy siyosiy bitimning tasdig'i bo'lib, bugungi kundagi saylov tizimining ijtimoiy shartnoma "social contract" funksiyasiga qiyoslash mumkin.

Ushbu fikrning tasdig'i Ibn Manzurning qarashlarida ham uchraydi. Unga ko'ra bay'at sadoqat xarakteridagi ijtimoiy-siyosiy aqd ma'nosida kelib, ahdlashayotgan har bir taraf o'zida mavjud bo'lgan narsani go'yoki sherigiga "sotayotgandek", ya'ni unga o'z sadoqati, itoati va ichki niyatlarini topshirayotgandek tasavvur qilinadi [7:402]. Shu bois bay'at faqat tashqi kelishuv emas, balki ichki sadoqat va mas'uliyatni ham o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR

Bay'at instituti tarixan turli shakllarda namoyon bo'lgan. Xususan, Payg'ambar (SAV) davridagi "Aqaba" va "Rizvon" bay'atlari strategik ittifoq hamda harbiy-siyosiy birdamlik namunasi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik xalifalar davrida bu jarayon yanada tizimlashtirilgan.

Hajjoj ibn Yusuf davrida shakllantirilgan "Aymanul-bay'a" (Bay'at qasamyodlari) tizimi siyosiy sadoqatni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan edi [6:274]. Bunda qasamyod buzilishi o'ta qat'iy ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarini (taloq, qul ozod qilish, majburiy ro'za) keltirib chiqargan. Bu esa bay'atning shunchaki og'zaki va'da emas, balki davlat yaxlitligini ta'minlovchi o'ta jiddiy siyosiy-huquqiy hujjat ekanligidan dalolat beradi.

Tarixda bay'atning hukmi bay'at beruvchilarning holatiga ko'ra turlicha bo'lgan. Masalan, musulmon mamlakatlarida "Ahlu-l-hal va-l-aqd" deb nomlanuvchi elita mavjud bo'lib, ular zimmasiga imomat, ya'ni, rahbarlik uchun shariatda belgilangan barcha shartlarga javob beradigan kishini tanlab, unga bay'at berishlari vojib bo'lgan [6:275]. "Ahlu-l-hal va-l-aqd" [أهل الحل والأقد] siyosiy tushuncha sifatida, jamiyat nomidan muhim qarorlarni qabul qiladigan, xususan, rahbarni (imom yoki xalifani) saylash

va zarurat tug'ilganda uni vazifasidan ozod qilish huquqiga ega bo'lgan nufuzli guruhga nisbatan ishlatilgan.

Islomda bay'atning ahamiyati yuqori darajada ekanini Payg'ambar (SAV)ning "Kim zimmasida bay'ati bo'lmagan holda vafot etsa, u johiliyat o'limi bilan vafot topibdi" degan hadislaridan ham anglash mumkin.

Lekin Molikiy mazhabi ulamolariga ko'ra oddiy xalq uchun, bay'at qilingan imomning qo'l ostida ekanliklariga va unga itoat etish lozimligiga e'tiqod qilishlarining o'zi kifoya qiladi [6:275].

Shuni ham ta'kidlash zarurki, islomda imom yoki rahbar etib tanlangan kishi agar rahbarlik faqat uning zimmasiga tushib, boshqa munosib kishi topilmasa, bay'atni qabul qilishi unga vojib bo'ladi [6:275].

Yuqorida aytilgan elitani bugungi kunda parlament yoki senatga qiyos qilish mumkin. Zamonaviy dunyoda saylovchilar o'z vakillari – deputatlarni saylashadi, deputatlar esa qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim pozitsiyaga ega. Bugungi kunda saylov uchastkasiga borib, byulleten orqali ovoz berish jarayoni o'sha qadimiy "bay'at"ning zamonaviy shakli sifatida ko'riladi. Sababi, saylovda ishtirok etuvchi kishi "Men ushbu shaxsning rahbarligiga roziman va uning qonuniy farmonlariga bo'ysunishni zimmamga olaman" degan irodani bildiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarixiy bay'at instituti bugungi kundagi demokratiya va legitimlik tushunchalarining islom huquqidagi analogi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa islom boshqaruv tamoyillari zamonaviy davlatchilik asoslari bilan umuminsoniy qadriyatlar nuqtasida tutashishini isbotlaydi.

XULOSA

Qator adabiyotlarga asoslanib "bay'at" atamasining tadqiqi va ilmiy tahlillari natijasida uning siyosiy-huquqiy hamda ma'naviy mohiyati yuzasidan bir qancha yakuniy xulosalarni aytish mumkin. Xususan, lug'aviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, "bay'at" tushunchasi "bay" (sotish) o'zagidan olingani, u huquqiy jihatdan ikki tomonlama majburiyat yuklovchi bitim hisoblanadi. Maqoladagi manbalarga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki ushbu atama nafaqat

itoatni, balki ixtiyoriy rozilik va o‘zaro ahdlashuvni ham ifoda etadi.

Bay‘at instituti bevosita zamonaviy davlatchilik va hokimiyat tushunchalari bilan aloqador bo‘lib, uning islom tarixidagi ko‘rinishlari, islom huquqidagi tarixiy ko‘rinishlaridan biridir. Tarixiy bay‘at an‘analari bugungi demokratik saylov jarayonlari bilan umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan uzviy bog‘liq. Tasavvufiy manbalar ham, xususan, “Ta’viloti Najmiya” asari bay‘atning shunchaki siyosiy akt emas, balki shaxsning ma’naviy kamoloti va nafs islohi yo‘lidagi ahdi ekanini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda yuksak axloqiy muhitni shakllantirishda muhim tarbiyaviy resurs bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’kidlash zarurki, “bay‘at” tushunchasini klassik manbalar asosida to‘g‘ri talqin qilish, bugungi kunda radikal oqimlar tomonidan ushbu tushunchani noto‘g‘ri va g‘arazli maqsadlarda qo‘llanilishiga qarshi kuchli ilmiy raddiya bo‘ladi. Bu esa yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoyalashda strategik ahamiyat kasb etadi. U rahbar va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va mas’uliyatni belgilovchi institut sifatida davlat barqarorligining huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, bay‘at instituti islom sivilizatsiyasining boy huquqiy merosi bo‘lib, uni zamonaviy sharoitda qayta anglash milliy davlatchilikning ma’naviy asoslarini boyitishga va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – 624 b.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. – Damashq: Muassasa ar-risola noshirun, 2022. – 1904 b.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dor ibn Hazm, 2005. – 1963 b.
4. Abu Husayn Muslim ibn Hajjoj ibn Muslim Qushayriy. Sahih Muslim. – Riyoz: Bayt al-afkar ad-davliyya li an-nashri va at-tavzi, 1998. – 1473 b.
5. Ahmad ibn Umar Muhammad Najmiddin Kubro. Ta’viloti Najmiya fi tafsiri ishoriiy so‘fiy. 5-mujallad. – Bayrut: Doru-l-kutub al-ilmiyya, 2009. – 436 b.
6. Al-mavsua al-fiqhiyya. Vizarot al-avqof va ash-shu’un al-islomiyya. 9-juz. – Kuvayt: Toba’ zot as-salom, 1989. – 319 b.
7. Ibn Manzur Ansoriy Xazrajiy. Lison al-arab. – Qohira: Dor al-maorif, 1883. – 4978 b.
8. Sahl ibn Abdulloh Tustariy. Tafsiru Qur’oni azim. – Qohira: Doru-l-harom li-t-turos, 2004. – 347 b.
9. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy. At-tasavvuf va as-suluk. – Bayrut: Al-maktaba al-asriyya, 2024. – 231 b.